


**2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 33 395,3 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar - 32 824,3 mlrd. so'mni (103,6 %), o'rmon xo'jaligi – 348,9 mlrd. so'mni (102,1 %), baliqchilik xo'jaligi – 222,1 mlrd. so'mni (107,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Farg'ona viloyatining ulushi 9,2 %ni tashkil etdi.

**33 395,3****Farg'ona viloyati bo'yicha qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi (xizmat) larining  
hajmi, mlrd.so'm****32 824,3****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu  
sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar****348,9****O'rmon xo'jaligi****222,1****Baliqchilik xo'jaligi**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, (%)**




**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (%)**



- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik


2022-yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,3 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 1,0 % i – o'rmon xo'jaligi, 0,7 %i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

### Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so'm)



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Oltiariq 2 843,0 mlrd. so'm va Farg'ona 2 741,8 mlrd. so'm tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon shahri 276,0 mlrd. so'm, Marg'ilon shahri esa 426,1 mlrd. so'm, shuningdek So'x tumanida 515,2 mlrd. so'm qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%)




Hududlar kesimida tahlil etilganda viloyat ko'rsatkichidan (103,6 %) yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (106,4 %), Yozyovon (105,8 %) va Dang'ara (105,8 %) tumanlarida kuzatildi. Qo'qon (101,2 %), Farg'ona (101,1 %) va Quvasoy (101,0 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 32 457,4 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 19 414,2 mlrd. so'mni (104,7 %), chorvachilik mahsulotlari 13 043,3 mlrd. so'mni (102,0 %) tashkil qildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (%)




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (%)




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 56,8 %i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 39,5 %i – fermer xo'jaliklariga, 3,7 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (%)



### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (%)




2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Rishton tumanida (53,3 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Marg'ilon shahrida (94,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Farg'ona tumanida (27,5 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich So'x tumanida (4,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Rishton tumanida (46,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Yozyovon (0,1 %) tumanida qayd etildi.


## Dehqonchilik

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 19 414,2 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,7%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 59,8 %ni tashkil qildi.

### Don jami



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonida 864,0 ming t. don (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 12,2 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




## Farg'ona viloyati bo'yicha don yetishtirish hajmi, tonna



## Sabzavot



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 227,6 ming tonna sabzavot (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




## Farg'ona viloyati bo'yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna




## Kartoshka

Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 360,1 ming tonna kartoshka (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,6 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Farg'ona viloyati bo'yicha  
kartoshka yetishtirish  
hajmi, tonna



## Poliz



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 155,8 ming tonna poliz (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 6,1 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 79,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Farg'ona viloyati bo'yicha  
Poliz yetishtirish  
hajmi, tonna




## Meva


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 383,4 ming tonna meva (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,4 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 54,7 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Farg'ona viloyati bo'yicha  
meva yetishtirish  
hajmi, tonna




## Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 184,0 ming tonna uzum (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,6 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Farg'ona viloyati bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna




## Chorvachilik



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 13 043,3 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 102,0%ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 40,2 %ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 181,1 ming tonna go'sht (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,0 %ga ko'p), 1 104,9 ming tonna sut (2,7 %ga ko'p), 557,9 mln. dona tuxum (4,0 %ga ko'p), 1 333 tonna jun (2,3 %ga ko'p) ishlab chiqarildi va 12 992,0 tonna baliq (6,9 %ga ko'p) ovlandi.

## Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 181,1 ming tonna go'sht (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 83,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Farg'ona viloyati bo'yicha  
go'sht (tirik vaznda)  
yetishtirish hajmi, tonna




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 104,9 ming tonna sut (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,0 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




## Farg'ona viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




## Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 557,9 mln. dona tuxum (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,0 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 66,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.



Farg'ona viloyati bo'yicha  
olingan tuxum hajmi,  
ming dona




## Baliqchilik


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 12 992,0 t. (2021-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 6,9 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 79,9 %i fermer xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



## Farg'ona viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna




## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,5 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,6 %i fermer xo'jaliklariga, 89,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 24,1 %i fermer xo'jaliklariga, 73,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 17,2 %i fermer xo'jaliklariga, 62,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 20,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 075,1 mingtaga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 19,8 ming taga (1,9 %) ko'paydi.

## Yirik shoxli qoramollar




**Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Farg'ona viloyati  
bo'yicha yirik shoxli  
qoramollarning umumiy  
bosh soni, bosh




2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 387,6 ming taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 8,4 ming taga (2,2 %) ko'paydi.

## Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**




**Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, sigirlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, sigirlarning 90,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




## Farg'ona viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, bosh




2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 918,4 ming taga yetdi.

2022-yilning mos dasvri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilarning bosh soni - 25,2 ming taga (2,8 %) ko'paydi.

### Qo'y va echkilar



**Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 89,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



## Farg'ona viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, bosh




2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 10 258 taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 457 taga (4,7 %) ko'paydi.

## Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, otlarning 73,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



## Farg'ona viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 499,1 ming taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 361,6 ming taga (4,4 %) ko'paydi.

## Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 62,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



## Farg'ona viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 73-241-98-30